

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM JARAYONIDA KOGNITIV YONDASHUVNING O'QUVCHILARDAGI IQTIDORNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

M.A.Pazilov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kognitiv ta'lim, kognitiv yondashuv, ixtisoslashtirilgan ta'lim, iqtidor, iste'dod, o'qituvchi, paradigma, kontekst.

Ключевые слова: когнитивное образование, когнитивный подход, специализированное образование, талант, одаренность, учитель, парадигма, контекст.

Keywords: cognitive education, cognitive approach, specialized education, giftedness, talent, teacher, paradigm, context.

Kirish. Inson aqli asosan ta'lim jarayonida shakllanadi, u orqali dunyoviy bilimlarni egallaydi hamda barcha ilmlarning nazariy jihatdan ma'no-mazmunini tushunib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda ta'lim jarayonida o'quvchining o'qishdagi ko'zlagan maqsadini belgilab berish talab qilinadi. Zero, fanlarni hayotga tatbiq etishni bugungi kun talabi deb oladigan bo'lsak, mana shu talabning ijrosi doirasida o'quvchilardagi iqtidorni kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Uning uchun fanlar chuqurlashtirilgan tarzda o'tilishi lozim, buni esa umumta'lim maktablariga nisbatan ixtisoslashtirilgan maktablarda amalga oshirish imkoniyati ko'proq.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda belgilangan vazifa va qo'yilgan talablar o'quvchilar iqtidorini, qobiliyatini qo'llab-quvatlash, ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi va "ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan" [1]. Shuning uchun ham ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Demak, ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda kognitiv yondashuvning zarurligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Ma'lumot o'rinda aytish joiz "Kognitiv yondashuv - (element, mezon) bilimlarni tarjima qilish va o'zlashtirish, idrok etish, e'tibor, xotira, fikrlash va nutq jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ta'limga har qanday yondashuv uchun zarur hisoblanadi va "bilish" paradigmasida alohida rol o'ynaydi" [2].

Insondagi ilm-bilim sirlarini bilishga bo'lgan qiziquvchanlik, hayotda yashashga bo'lgan intilishlar, yaratuvchanlik, ixtiro – bularning barchasi aqliy faoliyatning ustunligidan, iqtidorning to'g'ri rivojlanganligidan darak beradi. Zardusht dinining muqaddas kitobi "Avesto"da "...qobiliyati bo'lib aqli bo'lmasa, buni qobiliyat deb bo'lmaydi" [3] deb keltiriladi. Shuningdek insoniyat hayotida o'qitish va o'qishning zaruriyati, bu tushunchalarning negizida insondagi iqtidor va qobiliyatni rivojlantirish xususiyatlari to'g'risida ham mantiqiy fikrlarni bildiradi.

Toifalarga ajratishga asoslangan ta'lim nazariyasini 1950-yillarda psixologiyada o'rgangan Jerom Bruner yaratdi va Devid Ausubel og'zaki o'rganish jarayonida ong fenomeniga ko'proq e'tibor qaratdi. Shunday qilib, bosqichma-bosqich o'rganish va o'qitishga doir kognitiv yondashuv ishlab chiqildi. Bu yondashuvlar asosan axborot bilan tushunchalarni anglashga qaratildi. Bu esa, kognitiv ta'limning yodlash yoki yodda saqlashini emas, balki

o'rganishning qanday holatda sodir bo'lishi haqida haqiqiy tushunchani rivojlantirishning quyidagi maqsadi bilan bog'liqligini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Ta'limda kognitiv yondashuvning asosiy maqsadi

O'qitish	O'qituvchi	O'quvchi
Kognitiv ta'lim	Yangi vaziyatlarga moslashish jarayonini amalga oshirishga imkon beradigan aqliy qobiliyat va strategiyalar majmuasini ishlab chiqishdan iborat	Tafakkuridagi mavjud tushunchalariga asoslangan bilimlarni o'zlashtirish orqali mustaqil qaror qabul qilishi kerak.
Kognitiv yondashuv	Idrok etishda mexanik yodlashga asoslanmasligi, zarur sharoitlar yaratilganda, ma'lumotning mohiyatini o'rganishning faol jarayoniga jalb qilinishi kerak	Ma'lumotlarni tahlil qilib, bilim va aqliy qobiliyatlariga tayanadi, iqtidorini namoyon etadi

Demak, kognitiv yondashuv o'quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini to'g'ri o'zlashtirishi, tafakkur va ongdagi qabul qilish jarayonlarini erkin fikrlashi orqali aytish olishi, asosiysi sohalarga oid ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

Har qanday yoshdagi iqtidorni sinashda bosim kuchayib ketish holatlari ham uchraydi. Natijada, inson ongidagi tushuncha va fikrlar o'zgarishga uchraydi. Masalan, qandaydir fanga qiziquvchi iqtidorli o'quvchidan shu fanning unga notanish bo'lgan xususiyatlari so'raladi. Bu haqda o'quvchida tushuncha yo'q, chunki, u kichkina hayotiy tajribasida biz so'ragan xususiyatga duch kelmagan. U o'zi darajasidagi natijaga erishgan. O'quvchidagi iqtidorni rivojlantirish borasida, uning imkoniyat darajasini hisobga olish, qiziquvchanligini so'ndirmaslikka harakat qilish ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida kognitiv yondashuvning quyidagi vazifalarini belgilab beradi:

- o'quvchi ongida fikrlarning qanday paydo bo'lganligini va tafakkurning ishlashini tushunish va tushuntirib berish;

- ta'lim kontekstida yangi ma'lumotlarni qo'llashga imkon beradigan strategiyalarni yaratish;

- o'qituvchi yangi ma'lumotlarni o'quvchidagi mavjud bo'lgan bilimlar bilan hamohang tarzda taqdim etish;

Natijalar. Albatta insonning bilish qobiliyati rivojlanishida sezgi a'zolarining ham o'rni beqiyosdir. Chunki inson ko'rish, eshitish, ushlab ko'rish orqali o'z

tushunchalarini boyitib boradi va o'zida paydo bo'lgan ma'lum savollarga javob topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa insonga narsa yoki buyumning qanday ko'rinishi, qanday sezilishi, qanday eshinishi orqali, unda o'ziga xos tushunchalar paydo bo'ladi. Bu holat kognitiv idrok deyiladi. Chunki, ta'limning ham, tarbiyaning ham asoslaridan biri o'rganish hisoblanadi. O'rganish sezgilar orqali olingan tashqi dunyoni va xulq-atvorni idrok etishda o'zgarishlarga olib keladi va "...xatti-harakatlarning kuzatilgan o'zgarishi o'rganish deyiladi" [4].

Jarayonni takomillashtirishda o'quvchilarning iqtidor yo'nalishlari bo'yicha mantiqan tuzilish shaklini aniqlashi, ma'lum darajada topshiriqlarning berilishi, bu bo'yicha uslubiy tavsiya va ko'rsatmalarni tayyorlash orqali o'quvchilarning iqtidoriga qarab ta'lim jarayoniga joriy etish, o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchilarga kognitiv yondashishi orqali ta'sir qilishda tomonlarning do'stlik munosabatlarini o'rnatishga asos bo'ladigan, o'qitishning demokratik usullaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqligi seziladi. Bu usulni A.S.Nauruzbaeva, R.O.Nurjanova va boshqa qator pedagog olimlar "o'z faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan xolda, o'zi uchun o'zi harakat qilish lozimligini bildiradi va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatadi" [5], deb tavsiflaydi.

Muhokama. Ushbu nazariyaning refleksiv ta'sirchanligi o'quvchining ertangi kun mas'uliyatini his etishi va berilgan topshiriqni bajarish javobgarligini olishga qodir kelajak avlodni tarbiyalash bilan xarakterlanadi. Chunki iqtidorni rivojlantirish jarayonidagi kognitiv yondashuvda o'quvchilarni ijtimoiylashtirish ko'lamini kengaytirishga zarurat paydo bo'ladi. Sababi, "Mehnat va kasb ko'nikmalari vositasida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish (ijtimoiy hamkorlikka kirishish, mehnat jamoalarida o'zini tutish, birgalikda faoliyat ko'rsatishga undash, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini egallash, jamoada faollik ko'rsatish va boshqalar)ning didaktik tizimi ularda innovatsion kasbiy dunyoqarashni boyitish asosida takomillashtirilgan" [6] ligi keyingi davr tadqiqotchilarining ilmiy yangiligi sifatida e'tirof etilib kelinmoqda.

Mazkur muammolarning kelib chiqish zahiriga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'limni tashkillashtirishda

raqamlarga ko'proq e'tibor berilib, sifatni esdan chiqarganimizda ko'rinadi. Bu esa maktab bitiruvchilarining erkin kasb tanlashida psixologik va aqliy jihatdan qiynalib, o'z qiziqishi bilan emas, balki, atrofida yolg'irlarning tavsiyalariga ishongan holda, tushunchasidan xoli bo'lgan kasblarni tanlashga majbur bo'lgan holatlari hayotimizda ko'p uchragan. Natijada iqtidor tushunchasi unutila boshlab, iqtidorni iste'dodga qo'shib foydalanib, iste'dodni rivojlantirish yo'llarini izlay boshlaganimiz. Bir so'z bilan aytganda biz iqtidorni emas, iste'dodni tan olganmiz.

Bu bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalariga nazar tashlaydigan bo'lsak AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Isroil, Yaponiyada o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy rivojlanish dinamikasi, zamonaviy texnologiyalarning intensiv shakllanishi, mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan izohlanadi. Shuning uchun o'quvchilardagi iqtidorni aniqlash va ularni kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha amaliy ahamiyatga egadir. Birgina misol Angliya ta'lim tizimida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda yangicha yondashuv iqtidorli bolalar uchun ta'limdagi ilmiy jarayonda evolyutsion o'zgarishlarni amalga oshirishning shart-sharoitlarni yaratdi. Bunda turli omillar, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, global iqtisodiy jarayonlar hisobga olindi. Ingliz modeli iste'dodli va iqtidorli bolalarni kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali g'oyalarni hal qilish orqali beqarorlikdan qochishning mumkin bo'lgan usullarini taqdim etdi. Bunday ijobiy yondashuv yordamida iqtidorli shaxslar ilm-fan, biznes va madaniyat dunyosida o'zlarini muvaffaqiyatli ko'rsata oldi. Ushbu yondashuv iste'dodli va iqtidorli bolalarning ta'lim maqomini sezilarli darajada oshirdi.

Xulosa. Xalqimizda hayot va turmush chig'irig'idan o'tgan, ilm-fanga yo'g'rilgan tajribalar mavjud. Ajdodlarimizning jismida jam bo'lgan iqtidor va qobiliyat bugungi yoshlarimizda ham yo'q emas, faqat ularni yuzaga chiqarib ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri olib borish lozim. Shuning uchun ham ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlarida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda kognitiv yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda gi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni, 3-modda.
2. Загвязинский В.И., Закирова А.Ф. и.т.д Педагогический словарь. –Москва: «Академия», 2008. – С. 243.
3. Raimov A., Raimova N. Hikmatlar shodasi. –Toshkent: «O'zbekiston», 2013, 12-b.
4. Ishak Demir. Yaz kuran kurslarinda okutulan dinimizi o'g'reniyorum kitabinda tedricilik kavrami. Yuksek Lisans Tezi Çorum, Hitit Üniversitesi, 2015, 6-sayfa.
5. Nauruzbaeva A.S., Nurjanova R.O. va boshqalar . Ta'rbiya isleri metodikasi. (o'qiw qollanba). – Toshkent: «Tafakkur bo'stoni», 2019, 67-b.
6. Maxmudova D.B. Mehnat va kasb ko'nikmalari vositasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning didaktik tizimi. Avtoreferat. – Nukus: 2019, 8-b.

REZYUME. Maqolada ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida kognitiv yondashuvning o'quvchilardagi iqtidorni rivojlantirish xususiyatlari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются особенности и значение когнитивного подхода в развитии одаренности учащихся в процессе специализированного обучения.

SUMMARY. This article discusses the features and significance of the cognitive approach in the development of students' talents in the process of specialized education.